



**NAMANGAN VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2024- YIL
YANVAR-IYUN**

2024-yilning yanvar-iyun oyida, Namangan viloyatida jami **3580,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,1 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi: Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



774

Bino va inshootlar
qurilishi

225

Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

444

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023- yil bilan solishtirganda 88,9 foizni tashkil etgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaranganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 53,6 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,6 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,8 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.07.2023- y.	01.07.2024- y.	
Namangan viloyati	1624	1443	88,9

tumanlar:

Mingbuloq	60	48	80,0
Kosonsoy	165	141	85,5
Namangan	70	55	78,6
Norin	93	82	88,2
Pop	102	86	84,3
To'raqo'rg'on	70	61	87,1
Uychi	166	141	84,9
Uchqo'rg'on	127	94	74,0
Chortoq	108	98	90,7
Chust	121	127	105,0
Yangiqo'rg'on	82	76	92,7
Namangan shahar shundan	460	434	94,3
Davlatobod	132	127	96,2
Yangi Namangan	112	122	108,9



2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Namangan sh.(30,1)



Uychi (9,8)



Kosonsoy (9,8)



■ Namangan .shahar

■ Minbuloq

■ Kosonsoy

■ Namangan

■ Norin

■ Pop

■ To'raqo'rg'on

■ Uychi

■ Uchqo'rg'on

■ Chortoq

■ Chust

■ Yangiqo'rg'on



Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyun uchun

	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofimalar	Norasmiy sektor
Namangan viloyati	3580238,4	262061,3	2244714,1	1073463,0
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	118476,7	7422,1	60509,8	50544,8
Kosonsoy	287346,1	18253,0	132612,6	136480,5
Namangan	234674,2	22647,2	135009,6	77017,4
Norin	172905,3	6519,4	88092,3	78293,6
Pop	185960,9	83874,0	51437,6	50649,3
To'raqo'rg'on	154419,9	4155,7	86604,3	63659,9
Uychi	437718,0	7282,9	360890,3	69544,8
Uchqo'rg'on	254110,8	38177,7	105901,7	110031,4
Chortoq	266469,5	10571,8	169286,2	86611,5
Chust	187730,8	4146,2	79946,6	103638,0
Yangiqo'rg'on	190435,3	6760,6	86265,9	97408,8
Namangan sh.	1089990,9	52250,7	888157,2	149583,0
<i>shundan</i>				
Davlatobod	454409,9	0,0	414243,8	40166,1
Yangi Namangan	346575,5	7959,0	275928,6	62687,9


2024- yilning yanvar-iyun oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 262061,3 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 107,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 7,3 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari


2024- yil yanvar-iyun uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Pop tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 45,1 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 62,7 % to'g'ri kelib. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,1 % ni tashkil etgan holda 2244714,1 mln. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar,
ulushi, % da



62,7

2024- yil
yanvar-iyun


62,5

2023- yil
yanvar-iyun



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Namangan shahri (888157,2 mln. so'm hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 81,5 %), Uychi tumani (360890,3 mln. so'm yoki 82,4 %), Chortoq tumani (169286,2 mln. so'm yoki 63,5 %)ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 30,0 % ni tashkil etdi yoki 1073463,0 mln. so'm miqdorida qayd etildi. 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 106,1 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 133338,1 mln. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2446478,1 mln. so'm qurilish ishlari bajarildi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2024- yil yanvar-iyun oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **74,2 %** yoki **2655655,3** mln. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

6,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **166148,2** mln. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **6,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1490294,1** mln. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **56,1 %** ni tashkil etdi

56,1 %

37,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissassi **999213,0** mln. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **37,6 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyun oylarida


	Qurilish ishlari, mln. so'm	o'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Namangan viloyati	3580238,4	108,1	2655655,3
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	118476,7	116,5	92947,9
Kosonsoy	287346,1	102,1	207141,1
Namangan	234674,2	110,8	180584,6
Norin	172905,3	109,8	132782,8
Pop	185960,9	137,1	130127,1
To'raqo'rg'on	154419,9	102,1	111537,5
Uychi	437718,0	107,2	331956,9
Uchqo'rg'on	254110,8	122,6	193862,8
Chortoq	266469,5	112,8	204485,5
Chust	187730,8	100,4	130127,1
Yangiqo'rg'on	190435,3	117,0	135438,4
Namangan shahri shundan	1089990,9	101,9	804663,6
Davlatobod	454409,9	101,6	339923,9
Yangi Namangan	346575,5	101,6	254942,9

**Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,9 % ni tashkil etgan. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 54,6 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 42,5 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 47,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 52,3 % hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



2023- yil
yanvar-iyun



2024- yil
yanvar-iyun

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari hamda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 0,6 % ni tashkil etdi. Qolgan 99,4 % ni kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etgan.

ulushi % da

4,9

2023- yil
yanvar-iyun

2023- yil
yanvar-iyun

95,1

Yirik qurilish
tashkilotlari
ulushi

0,6

2024- yil
yanvar-iyun

2024- yil
yanvar-iyun

99,4

Kichik korxona va
mikrofirmalar
ulushi

Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyun



	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	1162,2	105,8
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	861,0	114,1
Kosonsoy	1 254,2	99,7
Namangan	1 212,2	108,3
Norin	979,6	107,7
Pop	786,0	134,6
To'raqo'rg'on	626,7	99,8
Uychi	1 874,6	104,8
Uchqo'rg'on	1 365,5	120,2
Chortoq	1 235,4	110,4
Chust	654,3	98,3
Yangiqo'rg'on	799,8	114,6
Namangan shahri	1556,2	99,3

Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyun



Hududlar kesimida 2024- yil yanvar-iyun oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Uychi tumani – 1874,6 ming so'm yoki, 2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 104,8 %, undan keyin mos ravishda Uchqo'rg'on tumani– 1365,5 ming so'm (yoki 120,2 %) tumanlari egalladi.

**Namangan viloyati Investitsiyalar va
qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(69) 227-84-85**